

SPORT SOHASINI AXBOROTLASHTIRISH

Arabbayev Arobidin Xusnidinovich

ADU katta o'qituvchisi

Sotsial-iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning murakkablashuvi, insoniyat faoliyatining barcha sohalaridagi jarayonlar dinamikasining o'zgarishi, jamiyat uchun muhim bo'lgan axborotga ehtiyojini bilimlari o'stirish va yangi vositalarni rivojlantirishni rag'batlantirish orqali qondirishni shart qilib qo'ydi.

O'z navbatida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, jamiyatning yanada rivojlanishiga turtki bo'luvchi, axborot qiymatini oshiruvchi global axborot inqilobini o'zida mujjassam etadi. Bu esa ta'limni axborot texnologiyalarga, telekommunikatsiya tizimlariga, zamonaviy moddiy texnik bazaga asoslangan yagona axborot maydoniga olib keladi. Axborot eng muhim strategik va boshqaruv resurslaridan biri bo'lib, uni yaratish va undan foydalanish ijtimoiy hayotning turli sohalarining samarali rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sifatli axborotga ega bo'lish uchun birinchi navbatda axborot manbalaridan boshlang'ich axborotlarni yig'ish zarur bo'ladi.

Jamiyatning asosiy ijtimoiy ishlab chiqaruvchi kuchi sanalmish inson barkamolligi yo'lida axborotlashtirish jarayonlari asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. U insonlarga eng zamonaviy kompyuter texnika vositalarini amaliyotda keng qo'llash bo'yicha malakasini oshirishga va o'zining tuganmas qobiliyatini amalda sinab ko'rishga katta imkoniyat tug'diradi. Insonning axborotni qayta ishlash bo'yicha imkoniyatlarini kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish - axborotlashtirish sanoatini jadal rivojlantirishni talab etuvchi eng muxim texnik, iqtisodiy vazifa hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sportda axborot texnologiyalaridan foydalanish sport va sog'lomlashtirish jarayonlariga oid axborotlar sifati, uning aniqligi, ob'ektivligi, ishonchliligi va tezkorligi boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilish va amalda qo'llash imkoniyatini ta'minlaydi. Demak, axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish shu kunning eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib, jamiyat taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi. Axborot texnologiyalarini joriy qilishning asosiy mezonini har bir mutaxassisning har qanday bozor munosabatlari sharoitida davlat boshqaruviga yo'naltirilgan muammolarini echishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Axborot texnologiyalarining maxsuli inson faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladigan, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishga ega bo'lgan axborot tizimini o'z ichiga oladi. Axborot tizimlari va texnologiyalari yildan-yilga kishilik faoliyatining turli sohalarida yanada keng qo'llanilib borilmoqda. Ularni yaratish, ishga tushirish va keng qo'llashdan maqsad — jamiyat va insonning butun xayot faoliyatini axborotlashtirish borasidagi muammolarini samarali xal etishdir.

Aytish joizki, keyingi yillarda mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish, internet tarmog`idan samarali foydalanishga alohida e`tibor qaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to`g`risida"gi Farmoni, 2005 yil 16 noyabrdagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi, 2005 yil 28 sentyabrdagi "O`zbekiston Respublikasining jamoat axborot tarmog`ini tashkil etish to`g`risida"gi qarorlari, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi "Ma`lumotlar uzatish milliy tarmog`ini tashkil etish va jahon axborot tarmoqlaridan foydalanishni tartibga solish to`g`risida"gi, 1999 yil 26 martdagi "O`zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma`lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, internetda tarqatish tartibi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash to`g`risida"gi, 2002 yil 23 sentyabrdagi "Aloqa va axborotlashtirish sohasida boshqaruvni tashkil etishni takomillashtirish to`g`risida"gi, 2005 yil 22 noyabrdagi "Axborotlashtirish sohasida normativ - huquqiy bazani takomillashtirish to`g`risida"gi, 2005 yil 28 dekabrdagi "Ziyonet" axborot tarmog`ini yanada rivojlantirish to`g`risida"gi, 2006 yil 22 sentyabrdagi "Davlat va xo`jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora- tadbirlari to`g`risida"gi, 2007 yil 23 avgustdagi "Davlat va xo`jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o`zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi, 2007 yil 17 dekabrdagi "Internet tarmog`ida O`zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi, 2013 yildagi "Mamlakatimizning dasturiy ta`minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag`batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi, 2013 yil 27 iyundagi "O`zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarori va boshqa shu kabi hujjatlar amalda jamiyatimizni zamon talablariga mos ravishda axborotlashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan bunday keng ko`lamli islohotlar ko`p jixatdan uzluksiz jismoniy tarbiya va sport ta`lim tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Yangicha fikrlaydigan, malakali, chuqur bilimli mutahassislarni, ayniqsa, axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalana oladigan kadrlarni tayyorlash davr talabi bo`lib qolmoqda.

Ko`rsatib o`tilgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyoti samaradorligini o`shishida telekommunikatsiyalar, kompyuter va axborot- texnologiyalarining faol roli oshishini, odamlarning faoliyat va turmushi texnik qurilmalar va xizmatlarning eng zamonaviy turlari bilan jihozlanishini ta`minlash, respublikaning jahon jarayonlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvin imkonini beradi. Demak, iqtisodiy mutaxassisliklar bo`yicha ta`lim olayotgan talabalarni davr talabiga javob bera oladigan yetuk

mutahassis, komil inson bo`lib tarbiyalanishlarida, axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirishda, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etishda hamda ulardan foydalanishda, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab -extiyojlarini yanada to`liqroq qondirishda, jahon axborot hamjamiyatiga kirishda hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo`lishni kengaytirishda «Sportda AKT» fanini o`qitish katta ahamiyatga egadir.

Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda ta`lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg`u berilgan. Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televidenie) dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

O`quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.

Pedagoglarning o`z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to`g`ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Axborotli ta`lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko`zlangan maqsadga erishish mumkin. Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish asosiy yo`nalishlaridan biri va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning shug`ullanishi lozim bo`lgan sohasidir.

Xususan, ta`lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o`qituvchi va o`quvchilardan yangi axborot muhitida bemalol ishlay olish ko`nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Shu jumladan, jismoniy tarbiya darslarida ham axborot ta`lim vositalaridan foydalanish ta`lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim rol o`ynaydi.

XXI asrda zamonaviy ta`limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo`lmaydi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida o`quv mashg`ulotlarini tashkil qilish o`quvchining fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Chunki o`quvchi olgan yangi bilimlarni amaliy tarzda shaxsiy faoliyati yordamida qabul qiladi.

Jismoniy tarbiya mashg`ulotlarini o`qitishda AKT lar yordamida samarali foydalanib dars jarayonlarini tashkil etish bugungi ta`lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir.

Jismoniy tarbiya fani o`qituvchisi dars o`tish jarayonida informatsion texnologiya elementlarini o`z fanida qo`llaganida o`quvchilar axborotni olish uzatish, qayta ishlash kabi jarayonlarni sinab ko`radi. Buning uchun fanlarga doir mavjud bo`lgan "Elektron darsliklar" va o`quv pedagogik dasturlardan keng foydalanishni tashkil etishi lozim. Natijada o`quvchilar tomonidan fanga doir axborotni izlash uni saqlab qo`yish, qayta ishlash va uzutish kabi amallarni bajarish bilan kompyuter savodxonligi oshadi jismoniy tarbiya nazariyasi bilimlarni ham o`zlashtiradi bu esa izlanuvchanlikka

mantiqan fikrlash qobilyatini o'stirishiga va muammolarni xal etishda yaxshi samara beradi.

Foydalanilayotgan o'quv pedagogik dasturlardagi mavzular o'quvchi yosh xususiyatiga qarab tanlanadi. Ular oddiydan murakkabga qarab boruvchi misollar asosida tuzilishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi mavzuni yoritishda xayotiy misollarga ega bo'lgan o'quv pedagogik dasturlardan foydalansa, o'quvchi mavzuni eslab qolishi uchun katta imkoniyat yaratiladi.

Dars jarayonlarida axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning yana bir omili aksariyat o'quv pedagogik dasturlarda nazorat qilish imkoniyati bo'lib, bu o'quvchi bilimni baxolashni engillashtiradi. O'qituvchi tezkorlik bilan o'quvchi javoblarini taxlil qilib beradi, o'quvchi olgan bilimlari asosida keyingi mavzularni kompyuterlardan, elektron darsliklardan samarali foydalanib, jismoniya tabiya gimnastika fanini mustaqil o'zlashtira oladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari ham boshqa fan o'qituvchilari kabi o'z maqsadiga video darslardan foydalanib erishishi mumkin. Tasvirini ko'rish nazariy qismini eshitish orqali o'quvchilar bilimi ortadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, animatsiya va modellashtirish xarakterning molekulyar shakllarining konseptual tushunchalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Jismoniy tarbiyada motorik xarakter jarayonlarni zamonaviy multimedia vositalari orqali ko'rsatish o'quvchiga mavzuni eslab qolish, o'zi mustaqil bajarish imkonini beradi. Kompyuter animatsiyasi va modellashtirish jismoniy xarakterlarni va jarayonlarni tushunish uchun universal vosita bo'ladi. Animatsiyalarda ketma-ket diagrammalar ramziy tasvirlar strukturalar jismoniy xarakter orqali sodir bo'ladigan turli jarayonlar namoyish etiladi.

Aslida o'zaro axborot almashish iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalarda yanada rivojlanishga xizmat qiladi. Globallashtirish dunyoda axborot almashinuvi taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. Ma'lumki, bir paytlar og'zaki nutqning paydo bo'lishi bilan axborot uzatish imkoniyatlari kengaygan bo'lsa, yozma nutq rivoji bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Fan-texnika taraqqiyoti globallashtirish jarayonini beqiyos darajada tezlashtirdi. Endi radio, televidenie, matbuot, telefon, faks, pochta, internet orqali har qanday axborot o'ta tezkorlik bilan tarqatilishi jamiyat taraqqiyotiga so'zsiz ta'sir ko'rsatmoqda. Shu o'rinda, kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi, degan fikr amalda o'z isbotini topmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan (elektron darslik, o'quv film, vertual laboratoriya ishlari) foydalanish dars samaradorligi oshishiga zamin yaratadi. Shunday ekan, axborot kommunikatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyatida ijobiy natijalarni beradi va o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi:

☐ 1 mavzularni to'liq yoritib (video orqali jismoniy xarakterlar) berishga imkon yaratiladi;

- ❑ darsda ko'rgazmalilik ta'minlanadi;
- ❑ o'quvchilar mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka o'rgatiladi;
- ❑ darsda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ishlashiga zamin yaratiladi;
- ❑ o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalari tezkor nazarot qilinadi.
- ❑ o'quvchining darsda faolligi oshiriladi va yuqori samaradorlikka erishish uchun imkon bo'ladi;

Axborot kommunikatsion texnologiyalardan (elektron darslik, o'quv film, virtual laboratoriya ishlari) dars jarayonida foydalanish o'quvchi foaliyatiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- kompyuter savodxonligini oshiradi;

Unda sinfda ko'rsatishning iloji bo'lmagan jismoniy xarakterlarni, jismoniy tarbiya qonunlari asosida yaratilgan xarakter namoyish qilish imkoniyati mavjud. Qolaversa, jarayonlarni animatsiya holatida ko'rsatish, tezlashtirib yoki sekinlashtirib namoyish qilish mumkin. O'quv filmlari quyidagi funksiyalarni bajarishi mumkin:

- o'rganilishi kerak bo'lgan materialning bir qismini o'qituvchining o'rniga tushuntirib berishi;
- o'qituvchining tushuntirishini ekranda ko'rsatib berishi;
- o'rganilayotgan hodisaning, qonunning texnik jihatdan qo'llanilishi;
- mavzuga yakun yasashi;
- yangi mavzuga kirish vazifasini bajarishi;
- o'quv sayrlarini o'tkazishning iloji bo'lmasa, uning o'rnini bosishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan vazifalariga ko'ra o'quv filmlarini darsning turli bosqichlarida ishlatiladi. Ko'pgina hollarda o'quv filmi o'qituvchining tushuntirishi bilan, o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajarishi bilan, birgalikda olib borilishi mumkin. Ba'zan film ko'rsatilishi oldidan o'qituvchi filmni ko'rish jarayonida nimaga asosiy e'tiborni qaratishi kerakligini aytib o'tadi. Ayrim hollarda filmning bir qismi namoyish qilinib so'ngra asosiy masala muhokama qilinadi, so'ngra yana namoyishni davom ettiriladi. Filmni takrorlash darslarida ham muvaffaqiyatli qo'llash mumkin. Bunda oldin qisqacha takrorlash o'tkazilib, so'ngra film namoyish qilinadi. Shuningdek, an'anaviy uslubda dars strukturasi o'zgartiradi. O'qituvchi uchun vaqt tejaladi va o'quvchi e'tibori kuchaytiriladi. O'quv filmdan darsda, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar mustaqil bilim olishda foydalanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aripov M.M, B. Begalov, Sh. Begimqulov, M. Mamarajabov. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. — T.: Noshir, 2009.— 368-b
2. Aripov M.M, Lutfillayev M.X., "Informatika va axborot texnologiyalari". O'quv qo'llanma. Toshkent. O'zMU, 2015 yil. 142 bet Konstitutsiyasi qabul.
3. Aripov M.M, B. Begalov, Sh. Begimqulov, M. Mamarajabov. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. — T.: Noshir, 2009.— 368-b

4. Aripov M.M, Lutfillayev M.X., “Informatika va axborot texnologiyalari”. O’quv qo’llanma. Toshkent. O’zMU, 2015 yil. 142 bet.
5. A.X.Arabbayev. Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari 23.04.2021-yil. 107-109-betlar.